

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunning targ‘ibotiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi

// 25.06.2024

<https://uzkimyo sanoat.uz/oz/press/news/manfaatlar-to-qnashuvi-to-g-risida-gi-qonunning-targ-ibotiga>



Bugun “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruv raisi v.b To‘lqin Zaripov rahbarligida sohaviy o‘rinbosarlar hamda tegishli tarkibiy bo‘lim rahbarlari ishtirokida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunning mazmun-mohiyati, ahamiyati hamda ushbu qonunni jamiyat faoliyatiga tatbiq etishning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Unda “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori xususida batafsil ma‘lumot berildi.



dehqanabadpotashplant



uz-potash.uz



(+99875) 612-50-05



Undan tashqari Jamiyatda “Manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida”gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish, amalga kiritishga har tomonlama va puxta tayyorgarlik ko’rish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar belgilab olindi.

Jumladan, mas’ullarga qonun kuchga kirguniga qadar unda belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog’liq masalalar yuzasidan Jamiyatda tegishli ishchi guruh tuzgan holda o’rganishlarni tashkil etish vazifasi yuklatildi.



dehkanabadpotashplant



uz-potash.uz



(+99875) 612-50-05



“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Matbuot xizmati